



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 9-may, № 94 (8989)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



QAHRAMON AJDODLARIMIZNING MARDLIGI VA MATONATI BIZ UCHUN HAMISHA IBRAT MAKTABI

Ikkinchi jahon urushining tugaganiga 80 yil bo'ldi. Shuncha vaqt o'tsa-da, uning tarixi, kulfat va musibatlarini unutilmaydi. Aksincha, urushning mudhish oqibatlarini, tinchlik-osoyishtalik qadrini yodga soladi. 9-may — Xotira va Qadrlash kuni zamirida ana shunday mohiyat mujassam.



Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu sana munosabati bilan G'alaba bog'iga tashrif buyurib, xotira marosimida ishtirok etdi.

Bog' bo'ylab mungli kuy taraladi. Bu yerdagi har bir yodgorlik, timsol va bitiklar mudhish urush haqiqatlarini ifoda etadi, xalqimizning g'alabaga

qo'shgan ulkan hissasini urg'ulaydi. Bog' bugungidek bayram kunlarida, ayniqsa, gavjum bo'ladi.

So'ngi yillarda shakllangan an'anaga muvofiq davlatimiz rahbari "Matonat madhiyasi" yodgorligi poyiga gulchambar qo'ydi. Bu muazzam obida urushda xalqimiz

chekkan azob-uqubatlari, matonat va yo'qotishlarning ifodasidir.

Hujjatlarining dalolat berishicha, fashizmga qarshi qonli janglarda o'sha paytda 6 million 800 ming nafarni tashkil etgan aholimizning qariyb 2 million nafari ishtirok etgan. Shundan 540 mingga yaqini halok bo'lgan,

158 ming nafari bedarak yo'qolgan, 50 mingdan ortig'i konslagerlarda mislsiz qiynoq va azoblar tufayli halok bo'lgan, 60 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytgan.

O'zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 mingga yaqini jangovar orden va medallar bilan

mukofotlangani ularning jasoratidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta'minat bazasiga aylangan, jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', kiyim va oziq-ovqatlar yetkazib turilgan.

G'oyat og'ir sharoitga qaramay xalqimiz urush hududlaridan ko'chirib kelingan 1 million 500 mingga yaqin insonni, jumladan, ota-onasidan judo bo'lgan 250 ming nafar yetim bolani o'z bag'riga olib, mehr ko'rsatgan.

— Bular chinakam mardlik va qahramonlik solnomasidir. Bunday murakkab va shonli g'alabaga munosib hissa qo'shgan matonatli xalqimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bu qahramonliklarni hech qachon unutmashimiz, yoshlarimizga yetkazishimiz kerak. Ayniqsa, hozirgi tahlikali zamonda buning ahamiyati nihoyatda katta. Hammamiz Vatan himoyasiga har kuni tayyor bo'lishimiz kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-fevraldagi qaroriga muvofiq, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 80 yilligi hamda Xotira va Qadrlash kuni munosib nishonlanmoqda. Bugungi avlodlar tinchligi, mamlakatimiz barqarorligi uchun jon fido qilgan insonlar xotirasi hurmat bilan yodga olinmoqda. Ayni vaqtda hayot bo'lgan mehnat faxriylari va keksalarga ehtirom ko'rsatilmoqda.

Tadbirda O'zbekiston Qurolli Kuchlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, mahalla faollari va nuroniylar ham ishtirok etib, mazkur yodgorlik poyiga gullar qo'yishdi.

Davlatimiz rahbari bog'da o'rnatilgan "Xotira nuri" kompozitsiyasini ham ko'zdan kechirdi. U Ikkinchi jahon urushi va front ortida mehnat qilgan o'zbekistonlik qahramonlar xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan. Monument parvoz qilayotgan ikki qush shaklida bo'lib, katta va yosh avlodlar o'rtasidagi vorislikni ifodalaydi.

Asar tarixiy meros va zamonaviy san'atni o'zida mujassam etgan.

Unga QR-havola o'rnatilgan bo'lib, tashrif buyuruvchilar majmua va urush qahramonlari haqida o'qishi, "Xotira nuri" kitobini yuklab olishi mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev G'alaba bog'idagi "Millat fidoyilari" xiyobonida bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining g'oyasi asosida tashkil etilgan ushbu yodgorlik mustaqillik yillarida mamlakatimiz himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining xotirasiga bag'ishlangan.

Majmua yuqoridagi qaraganda davlatimiz bayrog'idagi yarim oy va o'n ikki yulduz shaklida namoyon bo'ladi. Qariyb ikki metrlilik yulduzlarning qirralari bitiktosh vazifasini ham o'taydi. Ular yon taraffariga 196 nafar qahramonimiz nomi zarhal harflar bilan yozilgan. Bu bitiklar yoniga monitorlar o'rnatilgan bo'lib, millat fidoyilari to'g'risida ma'lumotlar foto va videolar orqali namoyish etib boriladi. Ya'ni ularning faqat nomi emas, bolaligi, orzulari, ishi va oilasi ko'z oldimizda jonlanadi.

Bayrog'imizdagi yarim oy mo'jaz amfiteatr shaklida xiyobonga ko'rk bag'ishlagan. Uning tepasidan poklik ramzi — suv oqib turadi. O'ning orqa tarafidagi haykaltaroshlik kompozitsiyasi badiiy g'oyaga yakun yasagan. Uning markazida farzandini harbiy xizmatga kuzatgan ota-onasi siumi gavdalantirilgan. Ikki yonida Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Oliy sud va prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya kabi tuzilmalar xizmatchilari aks ettirilgan.

Prezidentimiz shu yerda marhum harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan uchrashdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadri vatandoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni qutlug' ayyom — Xotira va Qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk G'alabani 80-yilligi bilan chin qalimdan muborakbod etib, barchangizga o'zimizning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni bildirishdan baxtiyorman.

Mana shu hayajonli, ayni paytda iztirobli damlarda insoniyatni fashizm balosidan xalos etishga munosib hissa qo'shgan qahramon avlodlarimizni yod etib, ularning yorqin xotirasi oldida ta'zim qilamiz.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etishda oltin teng duolari, maslahatlari bilan faol ishtirok etib kelayotgan muhtaram urush va mehnat faxriylariga alohida qutlov va tashakkurlarimizni izhor etamiz.

Hech shubhasiz, tinch va farovon hayot posbonlari ulug'lanadigan ushbu munavvar ayyomda mustaqillik yillarida Vatanimiz ozodligi, xalqimiz osoyishtaligini himoya qilish yo'lida qahramonlar halok bo'lgan jasur harbiylarimiz xotirasiga hurmat baho keltirish barchamiz uchun ham qarar, ham farzdir.

Aziz do'stlar! Bashariyat tarixidagi eng dahshatli qirg'in bo'lgan Ikkinchi jahon urushi dunyo xalqlari, jumladan, el-yurtimiz boshiga solgan og'ir musibatlar, mislsiz kulfat va yo'qotishlar hech qachon unutilmaydi.

Bu — zamon va makon chegarasini bilmaydigan chinakam mardlik va qahramonlik solnomasidir.

Bunday muazzam, shonli zafarga munosib hissa qo'shgan matonatli xalqimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi.

Keyingi yillarda jonkuyar olim va mutaxassislarimizning ilmiy izlanishlari tufayli Ikkinchi jahon urushi tarixining yangi sahifalari bilan tanishmoqdamiz.

Hujjatlarining dalolat berishicha, fashizmga qarshi qonli janglarda o'sha paytda 6 million 800 ming nafarni tashkil etgan aholimizning qariyb 2 million nafari ishtirok etgan. Shundan 540 mingga yaqini halok bo'lgan, 158 ming nafari bedarak yo'qolgan, 50 mingdan ortig'i konslagerlarda mislsiz qiynoq va azoblar tufayli halok bo'lgan, 60 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytgan.

O'zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 mingga yaqini jangovar orden va medallar bilan mukofotlangani, 301 nafari Sovet Ittifoqi

Qahramoni degan yuksak unvonga, 70 nafardan ziyodi uchala darajadagi "Slava" ordeniga sazovor bo'lgani, hech shubhasiz, yurtimiz vakillari tomonidan urush maydonlarida ko'rsatilgan jasorat va matonatning yuksak amaliy e'tirofidir.

Mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta'minat bazasiga aylangan, respublikamizdan jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar yetkazib berilgan o'sha suronli davrning yana bir unutilmas sahifasini tashkil etadi.

Urush olovi ichida qolgan hududlardan yurtimizga 170 dan ortiq zavod va fabrika ko'chirib keltirildi, qisqa muddatda 280 ta yangi korxonaga bunyod etildi.

Xalqimiz g'oyat og'ir va murakkab sharoitda urush hududlaridan o'lkamizga olib kelingan 1 million 500 mingga yaqin insonni, jumladan, ota-onasidan judo bo'lgan 250 ming nafar yetim bolani bag'riga olib, ularga mehr-muruvvat ko'rsatdi.

Tarix kitobiga muhrlangan bunday misollarni bugun yana bir bor esga olar ekanimiz, har qanday vaziyatda ham insoniy e'tiqodiga sodiq qolgan oliyanob va bag'rikeng xalqimizning buyuk gumanistik fazilatlariga tahsin va tasannolar aytamiz.

Qadri vatandoshlar! So'ngi yillarda qahramon ajdodlarimizning hayoti va faoliyati, mardlik va matonatini chuqur o'rganish va targ'ib etish, yosh avlodni ularning shonli an'analarini ruhida tarbiyalash bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Bu borada Toshkent shahrida bunyod etilgan G'alaba bog'i, hududlardagi "Vatanparvar" bog'larini muhim rol o'ynamoqda. Ushbu tabarruk maskanlar qisqa muddatda barcha yurtidoshlarimiz va chet eldek mehmonlar uchun qutlug' ziyoratgohlarga aylandi.

Ana shunday ezgu ishlarimizning davomi sifatida G'alaba bog'i hududida ona yurt qalqonlari sharafiga barpo etilgan yana bir tarixiy yodgorlik — Millat fidoyilari majmuasi ham, hech shubhasiz, g'oyat muhim ahamiyatga ega. Ishonchim komil, yuzlab marhum bahodir harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining nomlari zarhal harflar bilan muhrlab qo'yilgan ushbu muhtasham badiiy obida el-yurtimiz chin dildan intiladigan va faxrlanadigan yana bir mo'tabar maskan

bo'lib qoladi.

Hurmatli do'stlar!

Bugungi kunda "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oya hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda.

Bu yil Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga 10 ming AQSH dollari miqdorida, ushbu toifaga tenglashtirilgan shaxslarga 25 million so'm, mehnat fronti qatnashchilariga 3 million so'mdan bir martalik pul mukofotlari va "Ikkinchi jahon urushidagi G'alabani 80 yilligi" yubiley medallari topshirilgan muhtaram faxriylarimizga e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi.

Urush faxriylari va nogironlari uchun tibbiy va ijtimoiy xizmatlar, jumladan, patronaj xizmati ko'rsatilmoqda. Ular o'z xohishlariga ko'ra sanatoriylarda davolanmoqda.

Ushbu quvonchli kunlarda xalqimiz mo'tabar keksalarimiz, urush va mehnat faxriylarini ziyorat qilib, ularning duosini olmoqda. Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, harbiy qismlar rahbarlari ishtirokida urush va mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining oila a'zolarining holidan xabar olinib, ularga zarur ko'mak va yordamlar ko'rsatilmoqda.

Albatta, biz bugungi tinch, ozod va erkin hayot uchun o'zining aziz jonini ham ayamasdan kurashgan bunday fidoyi insonlarning oldida doimo qarzdormiz. Ular bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning mehri, e'tiborini his qilib yashaydilar.

Aziz va muhtaram yurtidoshlar! Hozirgi murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalash, diyorimizdagi tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo ahilik va totuvlikni asrash yo'lida qahramon ota-bobolarimizning Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'rsatgan sabot va matonati biz uchun hamisha ibrat maktabi, kuch va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu unutilmas ayyomda siz, azizlarni, muhtaram faxriylarimizni, butun xalqimizni yana bir bor samimiy tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman. Yurtimiz tinch, xalqimiz doimo omon bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

O'ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA FEDERATSİYASIGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-may kuni amaliy tashrif bilan Moskva shahriga keldi.

O'zbekiston yetakchisi uchun ajratilgan qarorgohda davlatimiz rahbarini Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o'rinbosari Maksim

Oreshkin va Hukumat Raisining birinchi o'rinbosari Denis Manturov kutib oldilar. Tashrif dasturiga muvofiq Prezidentimiz Ikkinchi jahon

urushidagi g'alabani 80 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etadi hamda qator ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazadi.

AHOLI SALOMATLIGI YO'LIDAGI ISLOHOTLAR

Kuni kecha davlatimiz rahbari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim qarorlar qabul qilindi. Birgina tuman misolida ayni kunlarda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatiga baho berildi.

Aks sado

Shuningdek, tibbiy xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash hamda ularning ish samaradorligini oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, "Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar" dasturi boshlanishi e'lon qilindi. Bunda viloyatlar

hokimlari zimmasiga ham vazifalar yuklandi. Xususan, ular kutish joylarida qulay o'rindiqni ko'paytirib, navbatni tartibga keltirish, "ona va bola" xonalari tashkil etish, nogironlari berlar erkin harakatlanishi uchun kirish-chiqish joylari, xona va yo'laklarda inklyuziv muhit yaratish uchun mas'ul bo'ladi.

FASHISTLARNI ZIR TITRATGAN O'ZBEK O'G'LONI

"Hech kim unutilmaydi, hech narsa unutilmaydi". Umumjahon xotirasi ramziga aylangan bu qanotli so'zlar Ikkinchi jahon urushiga bag'ishlangan ko'plab yodgorlik majmualarini yaratishga ilhom berdi.

Maxsus reportaj

Xalqimiz o'z qahramonlari xotirasini doimo qalbida saqlaydi, ularning jasoratini yuksak qadrlaydi. Bu mard insonlar namunalari biz yashashni, yaratishni, g'alaba qozonishni o'rganamiz, zamonlar o'rtasidagi bog'liqlikni avlodlarimizga yetkazamiz. Bronza, granit va marmar yodgorliklarda ozodlik hamda tinch kelajak uchun jon fido qilganlari nomi yozilgan. Ular shunchaki me'moriy inshootlar emas, matonat va jasorat timsoli bo'lib, bizni yangi marjalar sari ruhlantiradi.

Biz har yili 9-may — Xotira

va jasorat ko'rsatgan yurtdoshimiz, o'zbek xalqining qahramon farzandi Mamadal Topoldiyev. Uning jasoratini matonat va vatanparvarlik timsoliga aylantirib, kelajak avlodlarga faxr va g'urur baxsh etadi.

Qahramonlar xotirasi nafaqat o'tmishga hurmat, balki kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat hamdir. Tinchlik va osoyishtalik qanchalar mashaqqat evaziga qo'lga kiritilganini yosh avlod bilishi uchun ular haqida ko'proq hikoya qilishimiz kerak. "Xalq so'zi" va "Народное слово" gazetalarining ijodiy guruhi o'zbek jangchisining harbiy harakatlari bilan bog'liq joylar bilan yaqindan tanishish uchun Belarus zaminiga tashrif buyurdi. Mamadal Topoldiyev beqiyos qahramonlik ko'rsatgan Mogilev viloyatining Krugloye tumanida bo'ldi.

QAHRAMON AJDODLARIMIZNING MARDLIGI VA MATONATI BIZ UCHUN HAMISHA IBRAT MAKTABI

— Har yili bu yerga kelib Ikkinchi jahon urushidagi yo'qotishlarni eslaymiz. Endi mustaqillik fidoyilariga bag'ishlangan ushbu majmuani tashkil qilganimiz xayrli ish bo'ldi. Chunki ular ham milliy qahramonlarimiz. Shu jihatdan, bu maydonning ma'naviy ahamiyati katta. Bu ham o'zlikni anglash, bu ham inson qadri, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari Vatan himoyachilarining oila a'zolariga chuqur hurmatini bildirdi. — Bu jasur o'g'lonlar tahlikali vaziyatda

o'zini o'ylamay, burchiga sodiq qolib, xalqi uchun jonini fido qilgan. Hozirgi tinchlikda, osmonimiz musaffoligida ularning katta hissi bor. Oilalari, barcha yaqinlari bilishi kerakki, ular oramizda xuddi tirikdek, nomlari hech qachon o'chmaydi. Buni mana shu maydonda muhrlab qo'ydik. Men ularning ota-onalariga, turmush o'rtoqlariga ta'zim qilaman. Farzandlari qahramon otlariga munosib bo'lishini istayman, — deya ta'kidladi Prezident.

Millat fidoyilari tug'ilgan tumanlarda

xotira tadbirlari o'tkazish, ularning mardligini yoshlarga ibrat qilib ko'rsatish, qahramonliklari haqida asarlar yozish zarurligi ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Ikkinchi jahon urushi va mehnat fronti qatnashchilarini ham ziyorat qilib, bayram bilan tabrikkladi.

— Avvalo, sizlarni, siz orqali barcha faxriylarimizni G'alabaniy 80 yilligi bilan tabriklayman. Xalqimiz nomidan barchangizga chuqur minnatdorlik bildiram. Sizlarning qahramonligingiz tufayli bugungi avlodlar

shunday tinchlik-farovonlikda yashayapti. Bu tinchlikning qadri yoshlarimizga sizlar orqali yetkazishimiz kerak. Hayotingizning o'zi bizga namuna. Har bir gapingiz juda katta ta'lim, bilim. Ilohim, sog'ligingiz mustahkam bo'lib, ko'p yillar faxrimiz, duogo'yimiz bo'lib yuring, — deya tilak bildirdi Shavkat Mirziyoyev.

Nuroniylar yurtingizda tarixiy xotira ulug'langani, keksalarga katta hurmat-e'tibor ko'rsatilyotganini aytib, duolar qilishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-fevraldagi qaroriga muvofiq urush va

mehnat faxriylariga munosib hurmat ko'rsatilyotganini aytib, duolar qilishdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-fevraldagi qaroriga muvofiq urush va

Urush faxriylari va nogironlari uchun tibbiy

va ijtimoiy xizmatlar, jumladan, patronaj xizmati ko'rsatilyotganini aytib, duolar qilishdi.

Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, harbiy qismlar rahbarlari ishtirokida urush va mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining oila a'zolarining holidan xabar olinib, yuzushlariga yordamlashilmoqda.

O'ZA.

AHOLI SALOMATLIGI YO'LIDAGI ISLOHOTLAR

Birlamchi bo'g'inda sifatni oshirish — asosiy vazifa

Abdurahim ERKAYEV, Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi:

— Davlatimiz rahbari raisligida bo'lib o'tgan tibbiyot sohasidagi islohotlarning navbatdagi bosqichida turgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida soha rivojiga qaratilgan keng ko'lami hayotiy vazifa va amaliy tashabbuslar ilgari surildi. E'tiborga molik jihati, ularning ijrosi joylarda, eng avvalo, birlamchi bo'g'inda so'z sifatida ta'minlanishi shartligi aytiladi.

Bu yerda emas. Chunki bugungi kunda Oliy shifokor punkti, Oliy poliklinika deb ataluvchi tibbiyot muassasalari aholiga yaqin joylashgani uchun kimdir shifo istab, kimdir tibbiy maslahat olish ilinjida ushbu muassasalarga tez-tez murojaat etadi. Ya'ni aynan tibbiy xizmatning mana shu bo'g'ida xalqimizda tibbiy xizmatga, umuman, mamlakat tibbiyot tizimiga nisbatan ishonch va qoniqlik hissi shakllanadi. Shu bois yig'ilishda har bir poliklinika, shifoxona, markazda odamlarni tibbiyotdan rozi qilish, qat'iy intizom o'rnatish va madaniyat olib kirish, buning ijrosini muntazam muhokama etib, rahbarlarning

javobgarligini ko'rib chiqish bo'yicha mas'ullarga qat'iy vazifa qo'yildi.

Shuningdek, yig'ilishda birlamchi bo'g'inda barcha shifokor va hamshiralalar faqat to'liq stavkada ishlashi belgilandi. Poliklinikada akusher-ginekologlar soni 2 barobar ko'paytiriladigan bo'ldi. Har 3 ming nafar bola uchun bittadan pediatr shtati yangidan qo'shildi.

Tumanlardagi oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar faoliyati qamrov jihatdan maqbulashtiriladigan, markaziy poliklinikalar esa tuman shifoxonasining maslahat-diagnosticska bo'limga aylantirilishi va barcha tor soha mutaxassislari shu yerda ishlashi qayd etildi.

Ushbu tashabbuslar zamonaviy tibbiyotda kasalliklar profilaktikasi asosiy masalaga aylantirilgan bir paytda ularni erta bosqichda aniqlash imkonini yanada kengaytiradi. Ya'ni tibbiyotning birlamchi bo'g'ini faoliyati har tomonlama yangi bosqichga ko'tarilsa, yurtimizda turli og'ir darajadagi kasalliklarni erta aniqlash va unga zarur davo choralarini ko'rish mumkin bo'ladi. Qolaversa, davolash uchun ortiqcha resurslarni sarflash ham kamayadi. Zero, har qanday kasallikni davolagandan ko'ra uning oldini olgan

afzal. Birlamchi tizimni jonlantirishdan ko'zlangan maqsad ham shu.

Belgilangan vazifalarni tez va sifatli amalga oshirish uchun har bir vazir, hokim, deputat va senator joylardagi sharoitni o'z ko'zi bilan ko'rsa, qolaversa, o'zi va oila a'zolari o'z hududidagi oilaviy poliklinikaga chiqib, hududiy shifoxonasida davolansa, bu islohotlarning tezroq pastga tushishiga xizmat qilishi alohida ta'kidlandi. Aytish kerakki, bu nihoyatda hayotiy va o'rinni tashabbus bo'ldi. Tan olish joizki, respublika miqyosida sog'liqni saqlash tizimiga katta mablag' ajratilyotgan bo'lsa-da, qishloqdagi oilaviy poliklinikalarda shifokor yetishmasligi, uskunalarining yoki dori-darmonlarning mavjud emasligi haqida murojaatlar hali-hanuz mavjud. Agar shu hududdagi hokim yo deputat o'z yashash joyidagi poliklinikada ko'rikdan o'tsa, muammoni his qiladi va masala darhol yechimini topadi.

Ushbu vazifalar mohiyatiga e'tibor qaratsa, ularning har birida xalq salomatligini asrash va sog'lom millat genofondini saqlash ko'zda tutilganini ko'rish mumkin. Bu vazifalarning o'z vaqtida bajarilishi sog'liqni saqlash sohasini yangi bosqichga olib chiqishga, ko'rsatilyotgan xizmatlarning sifati yanada yaxshilanishiga va tibbiy xizmat qulayliklarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

HUJJAT LOYIHASI BO'YICHA TAKLIFLAR MUHOKAMASI



Yig'ilish

Unda senatorlar, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud sudyalari va Sudyalar oliy kengashi a'zolari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan berilgan taklif va tavsiyalar muhokama qilindi.

Qayd etish joizki, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlovchi sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini qaror toptirish, odil sudlovga erishish borasida islohotlar izchil davom ettirilmog'da.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Konstitutsiyaviy sud sudyalari, Oliy sud raisi, rais o'rinbosarlari va sudyalari, Sudyalar oliy kengashi raisi, rais o'rinbosari, uning a'zolarini saylash kabi konstitutsiyaviy vakolatlari faqat nomzodlarni tasdiqlash bilan

Kecha Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi huzuridagi ishchi guruh yig'ilishi bo'lib o'tdi.

loyihani hamda ushbu loyiha bo'yicha vazirlik va idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan berilgan taklif va tavsiyalar muhokama qilindi.

Qayd etish joizki, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlovchi sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini qaror toptirish, odil sudlovga erishish borasida islohotlar izchil davom ettirilmog'da.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Konstitutsiyaviy sud sudyalari, Oliy sud raisi, rais o'rinbosarlari va sudyalari, Sudyalar oliy kengashi raisi, rais o'rinbosari, uning a'zolarini saylash kabi konstitutsiyaviy vakolatlari faqat nomzodlarni tasdiqlash bilan

cheklanib qolmoqda. Parlament yuqori palatasi qo'mitalarida nomzodlarning faoliyati bilan tanishish va unga baho berish, nomzodlar haqida xulosa bildirish amaliyotini yo'lga qo'yish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu bois mazkur loyihada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sud sudyaligiga, Sudyalar oliy kengashi a'zolisiga nomzodlarning faoliyati bilan tanishish va unga baho berish, ular haqida xulosa bildirish amaliyotini joriy qilish nazarda tutilmog'da.

Muhokama natijasida bildirilgan taklif va tavsiyalar loyihani yanada takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlandi.

"Xalq so'zi".

QONUN IJROSI O'RGANILMOQDA

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi huzurida tuzilgan ishchi guruh tomonidan "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunning ijrosi holati atroflicha o'rganilmoqda.

Senator va hayot

Shu maqsadda 8-may kuni mazkur qo'mita raisi Bahrom Abdullayev boshchiligidagi ishchi guruh a'zolari Toshkent shahridagi qator ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari faoliyati bilan tanishdi.

Jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Iloplazma va lazer texnologiyalari instituti, Biorganik kimyo instituti, shuningdek, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy

tadqiqot universitetida bo'lib, ilmiy faoliyatni tashkil etish, yaratilgan shart-sharoitlar, tadqiqot ishlarining mazmuni va ularning amaliyotga tatbiq etilishi bo'yicha tahlillar olib borildi.

Tashrif doirasida professor-o'qituvchilar va olimlar bilan muloqotlar o'tkazilib, ularning fikr-mulohazalari, takliflari eshitildi hamda tegishli tavsiyalar berildi.

"Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun ijrosini o'rganish ishlari davom etmoqda.

"Xalq so'zi".

Qo'mitalar hafta ichida

TASHABBUSLAR HAYOTIMIZGA SAMARALI TATBIQ ETILADI

Shu yilning 1-2-may kunlari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatida bo'lib, hududni har tomonlama rivojlantirishga doir muhim tashabbus va ustuvor vazifalarni belgilab berdi.



Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni hayotga tatbiq etish ustidan ta'sirchan parlament nazoratini ta'minlash maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobati rivojlantirish va sanoat masalalari, Byudjet va iqtisodiy masalalar, Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitalari tomonidan kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi.

Ta'kidlanidek, keyingi yillarda Xorazm viloyatida ulkan yangilanish va o'zgarishlar ro'y bermoqda. Prezidentimiz boshchiligidagi odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi, oilasi bilan tinch-xotirjam yashashi uchun salmoqli ishlar bajarilayapti. Xususan, logistika

zanjiridan uzoqda, tabiiy resurslar cheklangan bu hududda o'tgan yilda 7 ming yangi tadbirkor ish boshlagan, 47 ta korxonaga kichikdan o'rta o'tgan. 1 700 ta korxonaga faoliyati tiklangan. Buning natijasida viloyatda bir yil ichida 290 ming aholi ishli bo'lgan.

Tadbirida davlatimiz rahbari tomonidan ijtimoiy sohalarni rivojlantirish vazifalari ko'rsatib o'tilgan, tibbiyot maskanlari va yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini ko'paytirib, aholini sog'lomlashtirish, texnikum va oliygoh talabalarini dual ta'limga qamrab olish, yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgani aytiladi.

Shuningdek, belgilab berilgan aniq yo'nalishlar Xorazmni har tomonlama

DEPUTATLARNING O'RINLI E'TIROZLARI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Adliya vazirligi, Din ishlari bo'yicha qo'mita, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda Yoshlar ishlari agentligining "2024-yilda byudjet xarajatlari va rivojlantirish dasturlarining maqsadli indikatorlar ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlari to'g'risida"gi hisobotlari eshitildi.

Hisobot yilida Adliya vazirligi tomonidan maqsadli indikatorlar ijrosini ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgani, jumladan, 1 ta strategik maqsad ijrosini ta'minlash doirasida 279,0 mlrd. so'm mablag' ajratilgani va belgilangan 19 ta indikator ko'rsatkichi to'liq bajarilgani qayd etildi. Shuningdek, yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish bo'yicha strategik maqsad indikatorlari doirasida yakuniy natija, ya'ni 13 ta huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirishga erishilgan.

Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan davlatimiz darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2024-yil uchun byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari bo'yicha 1 ta strategik maqsad doirasida 18 ta banddan iborat maqsadli indikatorni bajarish uchun 40,7 mlrd. so'm mablag' ajratilgan va 40,6 mlrd. so'mi sarflangan holda ularning 17 tasi to'liq, 1 tasi esa qisman bajarilgan.

O'tgan yilda Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 16 indikatorni bajarish uchun 93,1 mlrd. so'm mablag' rejalashtirilgan bo'lib, reja 49,2 mlrd. so'mga aniqlashtirilgan va xarajatlar 47,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

Yig'ilish davomida amalga oshirilgan ishlar e'tirof etilib, maqsadli indikatorlardan 3 tasining ijrosi bajarilmagani, jang'arma mablag'lari hisobidan xotin-qizlarga protez-

ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalari yetkazib berilmagani deputatlar tomonidan tanqid ostiga olindi.

Yoshlar ishlari agentligining 7 ta indikatorni bajarish uchun yil boshida 150,0 mlrd. so'm mablag' rejalashtirilgan bo'lib, 2024-yilda reja 168,1 mlrd. so'mga aniqlashtirilgan va xarajatlar 167,9 mlrd. so'mni tashkil etgan. Maqsadli indikatorlarning 4 tasi to'liq, 1 tasi qisman bajarilgan bo'lsa, 2 ta indikator ijrosi bajarilmagan.

Munozaralar davomida 2024-yilda 6 ming nafar yoshning haydovchilar tayyorlash kurslarida o'qish xarajatlari kompensatsiya qilish rejasi amalda 1639 nafarga bajarilgani deputatlarning jiddiy e'tiroziga sabab bo'ldi.

Deputatlar tomonidan maqsadli indikatorlarning ijrosi to'liq bajarilmagan holatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va kelgusida ularning oldini olish bo'yicha har bir vazirlik va idoralar tomonidan chuqur tahlillar o'tkazish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasiga har bir vazirlik va idoralarning maqsadli indikatorlari ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotlarini tizimli nazoratga olib borish, bu boradagi ishlar sifatini oshirish bo'yicha zarur takliflar, fikr-mulohazalar bildirildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Bugungi kun talabi — tibbiyotni jadal isloh qilish

Jamila BOBONAZAROVA, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi:

— Sog'liqni saqlash sohasi — oddiy tizim emas, balki har bir inson hayoti, oila baxti va xalq farovonligi bilan bevosita bog'liq yo'nalishtir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tgan navbatdagi yig'ilishda birlamchi tibbiy xizmatni isloh qilish masalasi yana kun tartibiga chiqdi.

Unda aholining tibbiy xizmatdan to'liq va sifatli foydalana olmayotgani, kasalliklarni erta aniqlash, davolash va oldini olish ishlarining yetarli darajada emasligi ta'kidlandi. Mavjud imkoniyatlar va ajratilyotgan mablag'lariga qaramay sohadagi muammolar o'z yechimini topmayotgani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari tibbiyot tizimini tubdan yangilash, uni zamonaviy va natijador mexanizmlar asosida tashkil qilish vaqtli kelganini alohida ta'kidladi. Jumladan, tuman darajasida shifokorlar, jihatlar va dori-darmonlar bilan ta'minlashda jiddiy muhtimosiblik mavjudligi, kasalliklar profilaktikasi va erta tashxis qo'yish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagani, natijada og'ir xastaliklar soni ortib borayotganiga e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda sog'liqni saqlash sohasida bosqichmas-bosqich amalga oshiriladigan yangi islohot yo'nalishlari belgilab berildi. Xususan:

— aholini kasalliklardan himoya qilish, erta diagnostika va profilaktikani kuchaytirish;

— tuman va mahalla darajasida aholiga qulay va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish;

— sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash;

— sektorlar va mahallalar kesimida tibbiy xizmatlarni muvofiqlashtirish orqali joylardagi muammolarga tezkor yechim topish.

Tibbiyot muassasalarini raqamlashtirishga e'tibor qaratilib, "Agar birlamchi bo'g'in, raqamlashtirish va sug'urtani joyiga qo'yusak, tibbiyot xodimlarining bilim va amaliy ko'nikmasini yaxshilasaq, muhimi, aholining tibbiy madaniyatini oshirsaq, shuning o'zi orqali ko'zlangan maqsadlarimizga erishamiz", deb ta'kidladi Prezident.

Davlatimiz rahbari mahalla va sektorlar kesimida aholining sog'ligi ustidan tizimli monitoring o'rnatish, tibbiy xizmatda hisobdorlik va javobgarlikni kuchaytirish lozimligini uqtirdi. Har bir hudud kesimida sog'liqni saqlash holatini yaxshilash bo'yicha alohida dastur qabul qilish, joylardagi tibbiyot muassasalarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash va ularning faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish topshirildi.

Biz, senatorlar joylarda ish olib borar ekanimiz, aholining asosiy arz va shikoyatlarini aynan tibbiy xizmatga bog'liq ekanini ko'p bora eshitamiz. Bugungi kun talabi — tibbiyotni jadal, lekin izchil asosda isloh qilish. Buning uchun nafaqat Sog'liqni saqlash vazirligi, balki barcha darajadagi davlat organlari, mahalliy hokimiyat va albatta, parlament tizimli ish olib borishi kerak.

Yana bir muhim masala — tibbiyotda ishlaydigan insonlarning kayfiyati va motivatsiyasi. Agar shifokorda ishonch va g'ayrat bo'lmasa, u bemorga qanday shifo ulashsin? Prezident ta'kidlaganidek, shifokorda o'zini ertaga ishdan bo'shatib yuborishlari mumkin degan xavotir bo'lmisligi kerak.

Xalq ishonchi va mas'uliyat

Sayyora ABDIKARIMOVA, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari:

— Yig'ilishda, bugungi kunda aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabi ortib borayotgan sharoitda birlamchi tibbiy yordamning samaradorligini oshirish dolzarb vazifa sifatida ko'tarildi. Prezidentimiz aytib o'tganidek, agar birlamchi bo'g'inda raqamlashtirish va tibbiy sug'urtani joyiga qo'ya olsak, butun soha rivojida jiddiy siljish bo'ladi. Bu fikr o'zining aniqligi va amaliy yechimga yo'naltirilgani bilan ahamiyatli.

Ayniqsa, mahallalarda oilaviy shifokorlarning moddiy va ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash, ularga ishonch va mas'uliyatni yuklash, mahalliy aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borishini ta'minlash kelgusida yurtimizda profilaktika, erta tashxis va sifatli davolash tizimining asosiy ustuniga aylanadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan qo'yilgan talablar, jumladan, poliklinika

tarmoqlarini qayta tashkil etish, shifokorlar sonini oshirish, hamshiralalar faoliyatini kuchaytirish, nogironlikni belgilovchi tizimni shaffof va odilona yo'lga qo'yish — barchasi aholiga xizmat ko'rsatish sifatidagi yangi bosqich.

Bunday strategik yondashuvlarni qonunchilik orqali mustahkamlash, ijrosini parlament nazorati asosida ta'minlash Senat oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bu borada senatorlar joylarda faol bo'lib, amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni o'rganishi, xalq bilan ochiq muloqotlar o'tkazib, islohotlarning haqiqiy ta'sirini baholashi zarur.

Shu bois "Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar" dasturini amaliy nazorat qilish, uning har bir bosqichini jamoatchilik va parlament yuqori palatasi doirasida tahlil etib borish nihoyatda muhim. Bu nafaqat hisobot, balki xalq ishonchiga asoslangan voqeqlik bo'lishi kerak.

Albatta, bu jarayonda har bir senator zimmasiga mas'uliyat yuklangan. Biz barcha tashabbuslarni xalq manfaatiga xizmat qiladigan aniq natijalar bilan ta'minlash harakatida bo'lamiz.

Sog'liqni saqlash tizimida katta burilish

Dilbar SUVONOVA, Surxondaryo viloyatidagi Xalq qabulxonasi mudiri, senator:

— Prezidentimiz raisligida o'tgan videoselektorda yangi O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining keyingi bosqichdagi rivojlanish strategiyasi belgilab berildi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Muloqotda tibbiyotning birlamchi bo'g'ini va ixtisoslashtirilgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste'molini tartibga solish hamda tibbiy ta'limni takomillashtirish bo'yicha islohotlar, shu bilan birga, kamchiliklar haqida ham ro'yibost aytiladi. "Bizda tibbiyot xodimlari sonida ham, moliyalashtirishda ham muammo yo'q. Lekin sifat borasida savollar juda ko'p", dedi davlat rahbari.

Eng og'riqli va eng dolzarb masalalardan biri — bu shubhasiz, mamlakatimizda dori iste'molini tartibga solish. Prezidentimiz tomonidan rivojlangan davlatlar "dalillarga asoslangan tibbiyot"ga tayanib, keng miqyosda o'tkazilgan klinik tadqiqotlar orqali samaradorligi va xavfsizligi aniq dorilardan foydalanib kelayotgani alohida ta'kidlandi. Yurtimizda samaradorligi isbotlanmagan dorilarning importdagi ulushi 42 foiz. Shifokorlar ularni hamon tavsiya etayotgani sababli aholi iste'mol qilmoqda. Shu bois Sog'liqni saqlash vaziriga xalqaro manbalarda "samarasiz yoki samarasiz o'rganilmagan" deb topilgan vositalarni klinik protokollardan chiqarish vazifasi

qo'yildi.

Ta'kidlash joizki, barcha tibbiyot muassasalari, birinchi navbatda, bolalar shifoxonalarida antibiotiklarni asosli qo'llash bo'yicha taftish o'tkazish nihoyatda muhim vazifa. Negaki, bolalar organizmi hali shakllanish jarayonida bo'lgani bois har qanday dori vositasi ularda nojo'ya asorat keltirib chiqarishi mumkin. Afuski, amaliyotda ko'p hollarda virusli infeksiyalar (ORVI, gripp, bronxitlar) uchun ham antibiotiklar tavsiya etilmog'da. Bu esa birinchi gald bolaning ichak florasiga, immunitet tizimiga zarar yetkazadi, qolaversa, antibiotiklarga bo'lgan chidamlilikni oshiradi. Ya'ni kelgusida boshqa yengilroq dori vositalari bolaga ta'sir qilmay qo'yadi.

Xo'sh, ushbu taftish nima beradi? Avvalo, barcha tibbiyot muassasalarida antibiotiklardan foydalanish statistikasi qayta ko'rib chiqiladi, shifokorlarga antibiotik terapiyasi bo'yicha qayta o'quv kurslari tashkil etiladi, bolalarga antibiotik tayinlashda faqat klinik tahlillar asosida qaror qabul qilish talabi qo'yiladi va dorixonalarda antibiotiklarni retseptsiz sotishga chekllovlar kuchaytiriladi.

Prezidentimiz videoselektorda belgilab bergan ustuvor vazifalar sog'liqni saqlash tizimida katta burilish yasaydi, tibbiyotimizni yangi bosqichga olib chiqishga zamin yaratadi. Qolaversa, mamlakatimizda sohaning yangi uyg'onish davrini boshlab beradi.

"Xalq so'zi".

AYLANMA IQTISODIYOT

BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN QANDAY AHAMIYATGA EGA?

Keyingi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning jadali o'sishiga olib kelgan katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Bunda 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi muhim dasturlamal bo'ldi, desak, mubolag'a emas. Bu yuritimizning deyarli barcha barqaror rivojlanish maqsadlarini faol hamda maqsadli bajarish uchun katta turtki bo'ldi.

Mushohada

Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha choratadbirlar to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishdagi islohotlarning mantiqiy huquqiy asosi bo'ldi.

Mazkur qarorning "Yashil" o'sishning ustuvor yo'nalishlari bobida alohida qiymat zanjirlari va tarmoqlarini yaratish uchun aylanma iqtisodiyot bo'yicha harakatlar rejalari — tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat chiqindilari, ifloslanish va gaz chiqindilarini kamaytirish maqsadida qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat zanjirlari aylanma iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish belgilab qo'yilgan.

Tahlillarga ko'ra so'nggi 150-yil dunyo aholisining ko'payishi va u bilan bog'liq holda resurslarni iste'mol qilish va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishini tobora kuchaytiradi. "Aylanma iqtisodiyot" tushunchasi 1970-yillardan global kompaniyalar hamda siyosatchilar va keng jamoatchilik tomonidan muhokama qilinishi boshlandi.

Davos (Shveysariya)da 2012-yilda o'tkazilgan Jahon iqtisodiy forumi vaqtida "McKinsey" tadqiqotlar markazi tomonidan aylanma iqtisodiyotning imkoniyatlari va afzalliklariga bag'ishlangan hisobot

taqdim etildi. Ushbu hisobotda aylanma iqtisodiyotni joriy qilish har bir mamlakat uchun katta daromad ehisigini ochib, ijtimoiy va ekologik farovonlikka yetaklik bo'yicha xulosalarga ega edi.

Aylanma iqtisodiyot — har qanday iqtisodiyotda resurslarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish modeli bo'lib, u imkon qadar uzoq vaqt davomida mavjud materiallar hamda mahsulotlarni samarali almashish, qayta foydalanish, qayta tiklash va qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

Konsepsiya iqlim o'zgarishi, biologik xilmaxillikning yo'qolishi, chiqindilar hamda ifloslanish kabi global muammolarni hal qilishga qaratilgan. Aylanma iqtisodiyot strategik ustunlikka erishish uchun uning asosiy tamoyillaridan foydalanish orqali resurslar samaradorligini oshirishga hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi, bunda kompaniyalar ekologik yuklarni kamaytirishga va o'z faoliyatining iqtisodiy jihatlari yaxshilashga intiladi.

Xo'sh, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida aylanma iqtisodiyot bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Hisob-kitoblarga ko'ra aylanma iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 2030-yilga qadar 1 foizdan 7 foizgacha oshishiga turtki beradi. "Circular Gap Report" tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra global iqtisodiyotning hozirda 7,2 foizini aylanma iqtisodiyot tashkil etmoqda.

2021-yilda uning butun dunyo bo'ylab keltirgan daromadi taxminan 339 mlrd.

AQSH dollariga yetgan. 2026-yilga borib bu ko'rsatkich ikki baravar ko'payib, 712 mlrd. AQSH dollarlik bozor imkoniyatiga ega bo'lishi prognoz qilinmoqda.

2030-yilga borib aylanma iqtisodiyotga o'tish orqali Yevropa Ittifoqi sof resurslar iste'molini har yili 600 mlrd. yevroga qisqartirish, bu orqali 1,8 trln. yevro daromadga ega bo'lishi mumkin. Jumladan, Niderlandiya 2030-yilga borib resurslardan foydalanishni 50 foizga kamaytirishni, 2050-yilgacha

surilmoqda. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida ekologiyaga zarar yetkazmaydigan infratuzilmani shakllantirish va sanoat korxonalarida aylanma (sirkulyar) iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish, bunda modernizatsiya jarayonini rag'batlantirish, alohida qiymat zanjirlari va tarmoqlarini yaratish uchun aylanma iqtisodiyot bo'yicha harakatlar rejalari ishlab chiqish kabi qator vazifalar belgilangan.

"Aylanma iqtisodiyot — har qanday iqtisodiyotda resurslarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish modeli bo'lib, u imkon qadar uzoq vaqt davomida mavjud materiallar hamda mahsulotlarni samarali almashish, qayta foydalanish, qayta tiklash va qayta ishlashni o'z ichiga oladi."

chiqindilarsiz aylanma iqtisodiyotga o'tishni maqsad qilgan. Fransiyada esa 100 foiz aylanma iqtisodiyotga o'tishga oid 50 ta chora-tadbiri o'z ichiga olgan aylanma sikli — iqtisodiyotning "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan.

Shu o'rinda mamlakatimizda aylanma iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish bo'yicha qanday tashabbuslar ilgari surilgan, degan savol tug'ilishi mumkin.

Avvalo, Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekistonda 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi mamlakatimizda BMT tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'llari va atrof-muhitni himoya qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Shu jihatdan mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda aylanma iqtisodiyot amaliyotini joriy etish bilan bog'liq bir qator muhim tashabbuslar ilgari

Hozirgi vaqtda xomashyo resurslarini qazib olish va ishlash global "issixona gazlari" miqdorining 70 foizini tashkil qiladi. Eng asosiy sanoat materiallari — sement, po'lat, plastmassa va alyuminiydan samaraliroq foydalanish va aylanma iqtisodiyot orqali 2050-yilga borib global "issixona gazlari" emissiyasini 40 foizga kamaytirish mumkin. Oziq-ovqat sanoati tizimida aylanma iqtisodiyot yondashuvlari natijasida global zaharli gazlar emissiyasini 49 foizga qisqartirishimiz mumkin.

Butun dunyoda chiqindilarning hosil

Aylanma iqtisodiyot amaliyotini keng joriy qilish mamlakatimiz sanoat korxonalariga yangi, zamonaviy, kam chiqindili texnologiyalarni olib kirish hamda atrof-muhitga chiqadigan chiqindilarning kamayishiga olib keladi. O'z navbatida, bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etib, tabiatga nisbatan bo'layotgan antropogen va texnogen ta'sirlar sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlaydi.

Jasurizm TURG'UNOV,
Qo'qon universitetining turizm va iqtisodiyot fakulteti dekani.

FRAKSIYALAR HAYOTI

O'zLiDeP



Shu haftada O'zLiDeP va O'ZMTDP fraksiyalari "Taraqqiyot bloki"ni tuzish yuzasidan bitim imzoladi. Ushbu blok 93 nafar deputatni birlashtirib, parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etadi va yetakchi siyosiy kuchga aylanadi.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Madina Baratova o'ng kuchlar birligi bo'lgan "Taraqqiyot bloki" "O'zbekiston — 2030" strategiyasining hayotga tatbiq qilinishini ta'minlashda bor imkoniyatlarini safarbar etish, shuningdek, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, milliy manfaatlarni qat'iy himoya qilish, ko'p asrlik milliy-tarixiy tajribaga tayanib faoliyat yuritishni muhim, deb hisoblashini ta'kidladi.

"O'ylaymizki, mazkur tashabbus milliy manfaatlarga xizmat qilib, mamlakatimizni yanada rivojlangan, qudrati, adolati va zamonaviy davlatga aylantirish yo'lida muhim qadam bo'ladi", deydi deputat.

"Milliy tiklanish" DP

Ayni kunlarda yurtimiz bo'ylab 9-may — Xotira va Qadrlash kuni keng nishonlanmoqda. O'tganlar xotirlanib, millatimiz rivoji yo'lga hissa qo'shgan kexsa nuroniyalar e'zozlanmoqda.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Sherzod Qulmatov tinchlik va o'soyishtaltni qadrlash xalqimiz o'zining shonli tarixida Vatani ozodligi yo'lida jon fido qilgan ajdodlarini hech qachon unutmasligini ta'kidladi.

"Xotira va Qadrlash kunida nafaqat Ikkinchi jahon urushida qatnashib, Vatani mardonavor himoya qilgan qahramonlar, balki yurt ozodligi, millat ravnaqi uchun jon fido etgan qatag'on qurbonlarini ham xotirlashga e'tibor qaratilayotgan tashvishga sazovor. Shu bois har yili 9-may arafasida maktab o'quvchilari, talabalar, fuqarolar shahid ketgan ota-bobolarimizga ehtirom ko'rsatish maqsadida "Shahidlar maydoni"ga tashrif buyurish bejiz emas. Chunki ularning hayoti yoshlar uchun ibrat maktabidir", deydi deputat.

"Adolat" SDP



Davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan birlamchi bo'g'in va ixtisoslashtirilgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori vositalari iste'molini tartibga solish hamda tibbiy ta'limni zamon talablariga mos ravishda isloh qilishga qaratilgan videoselektor yig'ilishi sog'liqni saqlash sohasidagi dolzarb muammolarni hal etishda yangi yondashuvlarni qamrab olgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari Robaxon Mahmudova bu bo'yicha ijtimoiy tarmoqdagi sahifasi orqali o'z munosabatini bildirdi.

"Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalar elektoratning katta qismini tibbiyot xodimlari tashkil etadigan partiyamiz Saylovoldi dasturida ilgari surilgan Qoyalalar bilan hamohangligi bizni quvontiradi. "Adolat" SDP va fraksiyasi aholi salomatligini ta'minlash yo'lida mazkur islohotlarni qo'llab-quvvatlaydi va ularning har bir bosqichida hududiy tuzilmalari, deputatlari bilan hamkorlikda faol ishtirok etadi. Zero, sog'lom xalq, barkamol millatgina buyuk ishlarga qodirdir!", deydi fraksiya rahbari.

O'zXDP



Qonunchilik palatasining yaqinda bo'lib o'tgan majlisida bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan siyosiy pluralizmning huquqiy asoslarini mustahkamlash va siyosiy partiyalarning jamiyatdagi rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi 13 ta qarshi ovoz bilan birinchi o'qishda qabul qilinib, qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Firdavs Sharipov loyiha bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar haqida to'xtalib o'tdi. Ya'ni endilikda o'zini parlamentdagi muxolifat, deb e'lon qilgan siyosiy partiya fraksiyasiga qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqilguniga qadar o'sha masalaga doir qonun loyihasining muqobil tahririni kiritish, shuningdek, har chorakda "Hukumat soati" va parlament so'rovi doirasida masala kiritish huquqi berilayotganini ta'kidladi.

"Ushbu qonun loyihasi parlamentdagi muxolifatning kafolatlangan huquqlarini kengaytirish orqali qonun ijodkorligi va parlament nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi", deydi deputat.

O'zbekiston Ekologik partiyasi



5-may kuni Prezidentimiz tomonidan "Yer uchastkalaridan foydalanish tartibi yanada takomillashtirishni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun imzolandi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi Oybek Otamuratov bu haqda o'z munosabatini bildirdi.

"Qonun bilan kiritilgan qo'shimchalarga ko'ra davlat mulki bo'lgan, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlarni xususiy lashtirish yoxud boshqacha tarzda begonalashtirish taqiqlandi. Ushbu yerlarda binolar va inshootlarni qurish yoki mavjud bino va inshootlarning qurilish maydonlarini kengaytirish, mazkur yerlarning hududini qisqartirishni taqiqlash belgilandi. Bundan ko'rish mumkinki, ushbu hujjat aholining dam olishi uchun foydalaniladigan yerlarni hamda yashil hududlarni muhofaza qilish uchun huquqiy asos yaratishga imkon beradi", deydi deputat.

"Xalq so'zi".

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rahbariyati, Birlashgan kasaba uyushmasi, jamoat tashkilotlari, tabiiy fanlar fakulteti jamoasi universitetning Geografiya va uni o'qitish kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Farhod SAIDAMATOVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor qiladi.

Hamkorlik

100 DAN ORTIQ KOMPANIYA VAKILLARI — BIZNES FORUMDA

Pekin shahrida joylashgan O'zbekiston elchixonasida yuritimizning savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va turizm salohiyatiga bag'ishlangan taqdimot o'tkazildi.



Tadbirda savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi, raqamli texnologiyalar, ta'lim, qurilish va boshqa sohalarda faoliyat olib boruvchi Xitoyning 100 dan ortiq kompaniyalari vakillari ishtirok etdi.

Taqdimot davomida O'zbekiston hududlarining iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyati, xorijiy investorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, jumladan, erkin iqtisodiy va sanoat zonalar, ulardagi mavjud soliq, bojxona va boshqa turdagi imtiyozlar hamda yangi istiqbolli investitsiyaviy loyihalar yuzasidan batafsil ma'lumot berildi.

Shuningdek, ishtirokchilar bilan O'zbekistonda biznes yuritish afzalliklari to'g'risida fikr almashildi hamda ular tomonidan ko'tarilgan masalalar yuzasidan batafsil ma'lumot berildi.

Tadbir davomida mamlakatimizning savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va turizm salohiyati akslantirilgan videoroliklar namoyish etildi. Shuningdek, Xitoy kompaniyasi vakillari bilan "B2B" va "G2B" formatida muzokaralar o'tkazildi.

Van PIN, Xenan avtomobilsozlik kompaniyasi bosh direktori:

— O'zbekiston elchixonasida uyushtirilgan iqtisodiy tadbirda ishtirok etganimdan xursandman. Bu yerda mamlakatimizning savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyati, xitoylik investorlar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida batafsil ma'lumot olish imkoniga ega bo'ldik.

Kompaniyamizda avtomobillar uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi. Shuningdek, mexanik ishlov berish xizmatlari ham mavjud. Bu tovarlarni to'g'ridan-to'g'ri yakuniy mahsulot ko'rinishida ishlab chiqarish va mijozlarga jo'natish imkonini beradi.

Kelgusida O'zbekiston bilan avtomobillar uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarish yo'nalishida hamkorlik qilishni rejalashtiryapmiz.

Xu CHUNSHIN, Xitoyning qurilish mollarini ishlab chiqaruvchi kompaniyasi vakili:

— Mazkur forum O'zbekistondagi biznes muhiti haqida ma'lumot olish va yangi sheriklarni topish uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Kompaniyamizda, asosan, qurilish materiallari va jihozlari ishlab chiqariladi. Tadbir davomida o'tkazilgan muzokaralarda o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish istiqbollarni muhokama qilidik.

Hamkorligimiz orqali O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga hissa qo'shishga tayyormiz.

"Dunyo" AA.
PeKin

ARNASOY POMIDORLARI JAHON BOZORIGA CHIQRILADI

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash yuritimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadlaridan. Shu ma'noda, Jizzax viloyatining Arnasoy tumanidagi chekka hududlarda, sho'rxox va chakalakzor yerlarda faoliyat ko'rsatayotgan "BMB HOLDING" bugungi kungacha kelib mahalliy aholi ishonchini oqlab ulgurdi. Muqaddam paxta, g'alla, dukkakli ekinlardan boshqa narsa ekishga jazm qilinmagan bu maydonlarda ilmiy va innovatsion yondashuv asosida sabzavotlar, xususan, pomidordan mo'l hosil olinmoqda.

O'ZIMIZNING MAHSULOT

— Odatda, tumanimiz paxta va g'allaga ixtisoslashtirilgan bo'lib, bo'sh maydonlarga faqat mosh ekiladi. Lekin oxirgi ikki yilda "BMB HOLDING" tomonidan sinov tariqasida sabzavot ekish amaliyotining joriy qilinishi o'zini oqladi, — deydi Arnasoy tumani hokimi o'rinbosari Xayriddin Suyarov. — Masalaning yana bir tomoni suv bilan bog'liq bo'lib, tumanimizda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish katta muammo edi. "Gidrogel" polimer moddasi biz uchun yangilikdir.

Arnasoy hududida suv tanqisligi

yuqori bo'lib, bu muammoga ham ijobiy yechim topish ustida mas'ullar bosh qotirmoqda. Masalaga yanada aniqroq yondashsak, har bir pomidor ko'chati ostiga 40 — 45 foizgacha suvni tejash imkoniyatini beradigan "AgroNanoGel Basic" gidrogel kabi "nou-xau"lar qo'llanilmoqda. Mazkur modda qo'llanilgan maydonlarda har bir tomoni suv bilan bog'liq bo'lsa, bu yil 50 gektarga yetkazishni rejalashtirganmiz. Mazkur jarayon orqali nafaqat hosil olish, balki ilg'or agrotexnologiyalarni amaliyotga joriy etishni ham maqsad qilganmiz.

bozorbop, xaridorgir, qolaversa, katta maydonlarda qayta ishlagan mo'ljalangan navlar parvarishlanmoqda.

Ayni paytda xolding urug'chilikni shu yerda yo'lga qo'yish, yangi navlar ustida izlanishlar olib bormoqda. Natijada Arnasoy tumani iqlimiga moslashtirilgan "Agronur-78" navi yaratilgan bo'lib, uning o'suv davri 110 — 120 kunning, bir tupdagi hosil 4-5 kilogrammi tashkil etadi. Bu nav kasalliklarga chidamli, qayta ishlagan juda qulay. Asosiy maydonlarga pomidorning xuddi shu navi ekilmoqda. Dalalarga "RedStar-F1", "Riogrand" kabi pomidor navlari ham moslashtirilyapti.

— Bugungi kunda yerning har qarichidan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega, — deydi "BMB AGRO" korxonasi bosh direktori Bahrom Qarshiboyev. — O'tgan yili 20 gektar pomidor ekilgan bo'lsa, bu yil 50 gektarga yetkazishni rejalashtirganmiz. Mazkur jarayon orqali nafaqat hosil olish, balki ilg'or agrotexnologiyalarni amaliyotga joriy etishni ham maqsad qilganmiz.

Rustam NURMATOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

QIZIQISH BILDIRISHGA SO'ROV

"O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik" loyihasi

- UZ-DIP-489725-CS-QCBS — Chet tillar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha konsalting xizmatlar;
- UZ-DIP-443831-CS-QCBS — O'zbekistonda ITES sohasini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish maqsadida "Enterprise Uzbekistan" ekotizimini shakllantirish bo'yicha konsalting xizmatlar.
- Qiziqish bildirishning oxirgi muddati: 2025-yil 28-may, soat 18:00 ga qadar.

Batafsil ma'lumot uchun: uqip@it-park.uz, 71-209-11-99 (1037).

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

vakant (bo'sh) professor-o'qituvchilar lavozimiga tanlov e'lon qiladi

1. O'zbek va xorijiy tillar	assistent
2. Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat	katta o'qituvchi
3. Charm va poyabzal muhandisligi	professor dotsent assistent
4. Ipak va yigirish texnologiyasi	professor dotsent
5. Buxgalteriya hisobi va marketing	assistent
6. Iqtisodiyot va menejment	katta o'qituvchi assistent
7. Kimyo va matbaa muhandisligi	dotsent assistent

Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar rektor nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa, diplomlar va attestatlar nusxalari, ilmiy ishlar va ixtirolar

ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risida hujjatlar nusxalarini topshiradi. Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

Eslatma: mazkur institutda ishlovchi shaxslar o'tgan muddat bo'yicha kafedrada hisobot beradi, tanlovda ishtirok etuvchilar sinov darslari o'tkazadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi, 5-uy, 1-bino, 208-xona. Tel.: 71-253-17-78.

FASHISTLARNI ZIR TITRATGAN O'ZBEK O'G'LONI



Yengilmas "Kazbek"

Mamadali Topvoldiyev Farg'ona viloyatining Rishton tumanida tug'ilgan. 1939-yilda armiyaga chaqirilib, Belarusda joylashgan harbiy qismda haydovchi-mexanik bo'lib xizmat qildi. O'zbekistonlik yosh va fidoyi yigit o'shanda Vatandan uzoqda birinchi marta bo'lib fashistlarga qarshi chiqishini va taqdir uni umrining oxirigacha Belarus zaminiga bog'lashini bilmas edi.

1941-yil 22-iyun tongida fashistlar sobiq ittifoqqa bostirib kirganida, 22 yoshli oddiy askar Mamadali Topvoldiyev va uning safdoshlari dushmanning birinchi hujumini qaytarishga harakat qiladi. Hamyurtimiz o'sha jangda yaralanadi. Bosqinning dastlabki kunlarida uning bo'linmasi fashistlar tomonidan qurshab olinadi. Shunga qaramay Mamadali Topvoldiyev kichik otryad bilan dushman qamalini yorib o'tib, Mogilev viloyati o'rmonlariga qochishga muvaffaq bo'ladi. Bu katta urushdagi uning ilk qahramonligi edi.

O'sha paytda Belarusning shahar va qishloqlari fashistlar tomonidan vayron qilingan, aholining katta qismi asirlikka olib ketilgan edi. Omon qolgan qariyalar, nogironligi borlar va bolalar juda og'ir sharoitda kun kechirardi.

— Guvohlarning so'zlariga ko'ra partizanlar dushmanga kechayu kunduz tinchlik bermagan, ularga katta zarar yetkazgan va fashistlarni sarosimaga solgan operatsiyalari amalga oshirgan, — deydi Krugloye tumani tarix va o'lkashunoslik muzeyi direktori Viya Gapayeva. — Quyida Topvoldiyev rahbarligi va ishtirokida amalga oshirilgan ayrim operatsiyalar xronologiyasini keltiramiz:

1941-yil noyabr. Mamadali va Nikolay fashistlar tomonidan bosib olingan Borisov shahridagi fashistlar lageriga hujum uyushtirib, 146 nafar harbiy asirni ozod qiladi.

1942-yil fevral. Krugloye qishlog'ida razvedka paytida Mamadali Topvoldiyev asirga tushib qoladi va bu safar ham qochishning uddasidan chiqadi. Shundan so'ng u Pasirevo, Dudakovich, Oglobli qishloqlaridan 13 nafar askar to'plab, partizanlar guruhini tuzadi. Keyinchalik ular Gerasim Kirpich boshchiligidagi "Chekist" partizanlar otryadiga qo'shiladi. Bu otryad keyinchalik ruslar, belaruslar, ukrainlar, o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, moldovalarni birlashtirgan partizan brigadasi aylanadi.

1942-yil iyul. Mamadali Topvoldiyev boshchiligidagi partizanlarning razvedka guruhi Smolenskdan Minskka ketayotgan dushman poyezdiga hujum qiladi. Trotsilovo-Slavnaya stansiyasi yaqinida fashistlarning poyezdi portlatib yuboriladi va ko'p sonli dushman askarlari yo'q qilinadi.

1943-yil boshidan 1-iyungacha u hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan jangovar harakatlarda qatnashadi. Uning guruhi Tolochin tumani markazida joylashgan fashistlar garnizoniga kutilmaganda hujum uyushtirib, asirga olingan yuzlab sovet askarlarini ozod etadi. Topvoldiyevning harakatlardan ruhlangan ko'plab askarlar partizanlarga qo'shiladi. Ular orasida qoraqalpog'istonlik Abdulla Bektemirov, beshariqlik Berdiqul Rahimov, qo'qonlik Qurbon Haydarov, asakalik Rahmatjon Yo'ldoshev va tojikistonlik Karim Dadaboyev bor edi.

13 — 15-iyun kunlari Mamadali bir o'zi dushmanning yengil va yuk mashinalarini portlatib yuboradi. Voronsevichi qishlog'ida razvedka paytida yaqinlashib kelayotgan dushman kolonnasini payqaydi. Uning xavfsiz o'q otish masofasiga yetib borishiga imkon berib, avtomatdan o'q uzadi. Fashistlar ajablaniib, qisqa to'qnashuvdan so'ng qochib ketishadi.

26-avgust kuni Logovshchina qishlog'ida u yakka o'zi dushman otryadi bilan jangga kiradi va ko'plab fashistlarni yo'q qiladi.

O'sha yilning oktyabr oyida "Kazbek" aholidan chorva mollari — otlar va echkilarni olib ketish uchun Podbereznovo qishlog'iga kelgan nemislar guruhini yo'q qilish bo'yicha

operatsiyani ishlab chiqadi. Bu jangda Mamadali bir o'zi ko'plab fashistlarni yo'q qiladi. Har bir operatsiyadan keyin Topvoldiyev xanjar bilan daraxtlarga "Kazbek" so'zini o'yib, o'z izini qoldirardi va bu esa fashistlarni mudom qo'rquvda ushlab turgan.

1943-yilda Mamadali Topvoldiyevning jasorati to'g'risidagi xabar butun Belarus bo'ylab tarqaladi va Oliy qo'mondonlik e'tiboriga havola etiladi.

1943-1944-yillar qishki harbiy harakatlarda Mamadali Topvoldiyev bir necha bor pistirmaga duch keladi, ammo shunga qaramay u har doim topshiriqni bajarishga harakat qiladi. Moskva, Minsk va Toshkentda nashr etilgan partizan harakatiga bog'ishlangan hujjatli va tarixiy kitoblarda jasorati alohida e'tirof etilgan. Uning marjonavor harakatlari haqida o'sha paytdagi nashrlarda ko'plab maqolalar yozilgan, jang maydonlariga tarqatilgan.

Mamadali Topvoldiyevning o'zi bir nechta dushman kazarmalarining kulini ko'kka sovurgan, beshita harbiy poyezdni portlatgan, 76 nafar fashist askari va generalni asirga olgan. Ma'lumotlarga ko'ra Adolf Gittler Mamadali shaxsiy dushmani sifatida bilan va uning boshi uchun 50 ming reyksmark, villa va yuz bosh sigir "mukofot" va da'qilgan.

1944-yil 15-avgustda Mamadali Topvoldiyev fashist bosqinchilarga qarshi kurashda ko'rsatgan jasorati va Belarusda partizan harakatini rivojlantirishdagi alohida

1277 nafar tinch aholi o'tib tashlandi, 1527 kishi Germaniyaga majburan deportatsiya qilingan. Viloyatda 8-partizan brigadasi, chekistlar otryadi, OBZOR yashirin partiya-komsomol tashkiloti faol bo'lgan. Mamadali Topvoldiyev nomi boshqa qahramonlar qatori Krugloye tumani tarixiga zarhal harflar bilan yozilgan.

Mamadali Topvoldiyev jasorati faqat jang maydonidagi qahramonlik hikoyasi emas. U o'z Vatanga muhabbat, ozodlik va adolat g'oyalarga sadoqat haqida hikoya qiladi. Uning martdligi barcha avlodlar uchun abadiy qahramonlikning yorqin namunasi bo'lib qoladi. Biz bunday qahramonlarni eslab, ularning merosini kelajak avlodlarga yetkazishimiz kerak.

Belarus xalqining ham farzandi

Har bir oila uchun urush shunchaki tarix emas, balki o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, ona yurtini fashist bosqinchilaridan qutqargan odamlarning taqdiri. Ba'zilar jang maydonlariga ketdi, ba'zilar partizan yo'ri xabar bo'ldi, ba'zilar esa front ortida mehnat qildi.

Urushdan keyingi yillarda Topvoldiyev bir necha bor Belarusga kelib, jangda birga qatnashgan partizan do'stlari bilan uchrashgan. *"Men ular bilan o'rmon*



xizmatlari uchun qahramonlik unvoni beriladi.

Qahramonlar xotirasi qalblarimizda

— Bugun biz fashizm ustidan qozonilgan g'alabaniing 80-yilligini nishonlamodamiz. Ikkinchi jahon urushi — bu tarix va millionlab odamlar taqdirini butunlay o'zgartirgan mash'um voqea, — deydi Krugloye tumani ijroiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Anjela Lukashevich. — O'sha og'ir davrlarni eslab, martdlik timsoliga aylangan qahramonlarimizni unutib bo'lmaydi. Ana shunday siymolardan biri — Vatan himoyasida turib, fashizmga qarshi beqiyos jasorat ko'rsatgan o'zbek o'g'loni Mamadali Topvoldiyev. Uning faoliyatini haqiqiy jasorat namunasi. Bu qahramonlar xotirasi qalblimizda yashashi, kelajak avlodlarga yetkazilishi zarur. U haqida tumanimizda yosh-u qari biladi: barcha ta'lim muassasasida Mamadali Topvoldiyevning qahramonliklari haqidagi stendlar o'rnatilgan. Urushdan keyingi yillarda Mamadali Topvoldiyev Krugloye tumaniga har gal kelganida mahalliy aholi unga alohida hurmat-ehтиrom ko'rsatgan. O'zgaracha mehrlar bilan "Bizning xaloksorimiz!", "Osiyo yo'lbarsi!", "Kazbek mard o'g'loni" deya kutib olgan.

Urushdan keyingi og'ir yillarda bir qancha qurol-dosh do'stlarini O'zbekistonga taklif qilgan haqida dalillar mavjud. Ularni ish va uy-joy bilan ta'minlagan.

Bugun Krugloye tarix va o'lkashunoslik muzeyida Mamadali Topvoldiyev uchun alohida bo'lim tashkil etilgan. Bu yerda qahramon yurt-doshimizning suratlari, ko'rsatgan jasoratlarini bitilgan kitoblar, gazeta va jurnallar hamda uning xizmatlari munosib taqdirlangani haqidagi hujjatlardan nusxalar saqlanmoqda. Bundan tashqari, tumaning markaziy ko'chalaridan biri uning nomi bilan ataladi. Tuman markaziy bog'ida esa uning xotirasiga byust o'rnatilgan. Bularning barchasi uning bo'qiy xotirasiga belarus xalqining cheksiz ehtiromi namunasi...

— Krugloye — mamlakatning eng noyob go'shalaridan biri, — deydi Krugloye markazlashtirilgan kutubxonasi axborot va xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i Natalya Saltanova. — Viloyatning o'tmishi Polosk va Drusk knyazliklari bilan bog'liq. Ammo kichik Vatanimizda urushdagi qahramonlik voqealari xotirasini 80-yil davomida saqlab qolgan joylar bor... 1941-yil 8-iyuldan 1944-yilning 28-iyuniga qadar viloyat hududi fashist bosqinchilari tomonidan ishg'ol etildi.

oqibatida bobom o'sha voqeadan ko'p o'tmay hayotdan ko'z yumadi. Keyinchalik Mamadali Topvoldiyev buning uchun fashistlardan munosib qasos olgan. Afsuski, beshafqat o'lim uni 1969-yilda hayotdan olib ketadi. O'sha paytlari har yil 6-mayda Mamadali Topvoldiyev Krugloye kelishni, ikkinchi onasidan xabar olishni, partizan do'stlari bilan uchrashishni an'anaga aylantirgandi. 1969-yilda ham buvim o'g'lining kelishini katta tayyorgarlik bilan kutgan. Ammo o'sha yili aynan 6-mayda uning hayotdan ko'z yumgani haqida xabar keladi. Buvim katta qayg'u bilan uning dafn marosimiga qatnashish uchun O'zbekistonga jo'nab ketadi va o'g'lini so'nggi manziliga kuzatib keladi. 1973-yilda u yana O'zbekistonga, o'g'li mangu qo'nim topgan manzilga borib qaytadi. Ana shundan so'ng "Endi o'g'limning o'ldiga ketadigan vaqt bo'ldi", degan ekani. Oradan ko'p o'tmay, u o'z omonatini topshirdi.

Bugun oilamiz Topvoldiyevlari oilasi bilan mustahkam do'stlik rishtalarini o'rnatgan. Bu esa xalqlarimiz o'rtasida abadiy do'stlik davom etayotganidan dalolatdir.

...Qahramon o'zbek o'g'lonining muqaddas xotirasi O'zbekistonda doim e'zoz va ehtiromda. Bugun u tug'ilib o'sgan Rishton tumanida uy-muzeyi ochildi, muazzam maydonga byusti o'rnatildi. Uning qahramonliklari haqida nafaqat rishtonliklar, balki butun xalqimiz o'zgaracha faxr va iftixor bilan eslaydi. Uning jasorati yoshlarga namuna sifatida ko'rsatiladi.

G'urur va iftixor timsoli

Ikkinchi jahon urushi insoniyat boshiga mislsiz kulfat va balolarni keltirdi. Millionlab odamlar halok bo'ldi, shahar va qishloqlar xarobaga aylandi, iqtisodiyot izdan chiqdi. Ana shunday katta yo'qotishlarga qaramay, fashizm ustidan g'alaba qozonildi. Shubhasiz, bu g'alabada o'zbek xalqining ham hisssasi beqiyos.

Raqamlarga e'tibor qilinamiz: urush arafasida O'zbekiston aholisi 6,8 million kishini tashkil etgan. Shundan qariyb ikki million nafari frontga ketgan. Bu — har uch nafar o'zbekistonlikning biri urushda qatnashdi, degani. Ulardan 540 ming nafarga yaqin halok bo'ldi, 157 ming nafardan ko'pi bedarak yo'qoldi, 870 ming nafardan ortig'i turlari jaholat oldi, 60 ming nafardan ziyodi esa nogiron bo'lib qaytdi. Fashizmga qarshi kurashda alohida jasorat ko'rsatgan 214 ming askar va ofitserimiz oldiga kelib turgan. Ular bilan taqdirlandi. Ularning 301 nafari "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoniga, 70 nafari uch darajadagi "Shon-sharaf" ("Slava") ordeniga sazovor bo'ldi.

Urush ortida mehnat qilgan yurt-doshlarimiz xizmatlari esa yanada ulkan.

Yana raqamlarga murojaat qilamiz. Urush ichida qolgan hududlardan O'zbekistonga 170 dan ortiq zavod va fabrikalar ko'chirildi va qisqa muddatda ularning faoliyati qayta tiklandi. Natijada xalqimiz front uchun juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar yetkazib berdi.

1941 — 1943-yillarda O'zbekiston aholisi mudofaa fondiga 475 million rubldan ortiq mablag' va 22 million rubllik qimmatbaho shaxsiy buyumlarini ixtiyoriy ravishda topshirdi. Xalqimiz urush hududlaridan evakuatsiya qilingan 1 million 500 mingga yaqin insonlarga boshpana berdi. O'tanasidan judo bo'lgan 250 ming nafar yetim bolaga mehroqibat ko'rsatdi.

Bular shunchaki statistik raqamlar emas, bu — olijanob o'zbek xalqining jasorati, bag'rikengligi namunasi.

...2025-yil 7-may. Belarus Respublikasi, Krugloye tumani. Yana bir tinch va osuda tong otdi. Kimdir farzandini bog'chaga, boshqasi maktabga kuzatyapti. Hamma o'zining shirin tashvishi bilan band. Muhimi, xotirjamlik hukmron, bugungi va ertangi osuda hayotdan ko'ngillar to'q'...

Dunyoning turli nuqtalarida ana shunday barqaror tinchlik bo'lishiga o'zbek o'g'lonlari ham o'z jasorati va mardonavor harakatlari bilan hissa qo'shgan haqida o'ylasak, qalbimizga cheksiz Qurur va iftixor to'ladi.

Fazliddin ABILOV, Nurlan USMONOV, "Xalq so'zi" va "Народное слово" gazetalari maxsus muxbirlari.
Toshkent — Minsk — Krugloye — Toshkent
Akmal MUHAMMADOV olgan suratlar.

Ajdodlar o'giti

Prezidentimizning mamlakatimizda 9-may — Xotira va Qadrlash kunini keng nishonlash, ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaga hissa qo'shgan urush va mehnat faxriylariga hamda Vatani ravnaqi, taraqqiyoti va uning himoyasi uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e'tibor va chuqur ehtirom ko'rsatish bo'yicha qabul qilgan qarori bizni og'ir urush azoblarini tortib, qahramonlik namunalarini ko'rsatgan ota-bobolarimizni yodga olishga, ularning ibratli va tarbiyaviy hayot yo'lini keng namoyon etishga chorlaydi.

URUSHNING UNUTILMAS SABOQLARI

Shu o'rinda davlatimiz rahbarining Xotira va Qadrlash kuni munosabati bilan o'tkazilgan tantanali tadbirlardan birida so'zlagan nutqida "Ayovsiz janglarda mardona qatnashgan qariyb 451 ming nafar yurt-doshimizning nomlari va taqdiri shuncha yillar mobaynida e'tibordan chetda qolib kelganini albatta adolatdan, deb bo'lmaydi. Shuningdek, o'sha davrda "quloq" sifatida boshqa o'lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshlarimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgan ma'lum bo'ldi", deb alohida ta'kidlab o'tgani yodga tushadi. Bu e'tirof ajdodlari "quloq" sifatida surgun qilingan minglab hamyurtlarimizning ko'nglini ko'tarib, ularda o'z ota-bobolariga nisbatan chuqur hurmat va ehtiromni yuksaltirishi bilan birga uzoq o'lkalarga aruz-uqublatlar ostida og'ir ishlarni bajarib, zohir-zahmatlarini boshidan kechirganlarga nisbatan chin insoniy munosabat namunasi.

Shunday insonlar qatorida bizning ajdodlarimiz — Muhammad Imin va Mulla Sohobqori ham bor edi. 1931-yilda o'la a'zolari bilan Ukrainaning Xerson viloyatiga "quloq" sifatida surgun qilingan bu insonlarning o'g'illari — Mirzamahmud Iminov, Abdulxayyori va Sharifjon Sohobovlar urush boshlangan 1941-yildayoq harakatdagi armiyaga safarbar etilgan.

Adolatsizlik bilan ona yurtidan surgun

qilinganiga qaramasdan o'z vatanparvarlik burchini qahramonlik bilan bajargan Sharifjon Sohobov urush yillari fashistlarga qarshi kechgan ko'plab janglarda razvedkachi sifatida qatnashgan. Ko'rsatgan jasoratlari uchun ko'plab orden va medallarga sazovor bo'lgan. Harbiy xizmatni 1945-yilning 8-mayigacha, ya'ni Reyxstag ustiga G'alaba bayrog'i o'rnatilguniga qadar davom ettirgan.

Urush — og'ir sinov. U insondan turli vaziyatlarga tayyor bo'lishni talab qiladi. Bu borada Sharifjon Sohobovni ko'p xavotirga solgan bir holat bor edi — u suzishni bilmasdi. Bu esa jangovar harakatlarda o'ziga bo'lgan ishonchga ta'sir etardi. Sharifjon Sohobov urushdan keyin ham bu haqda ko'p eslagan. Universitetda dars berib yurgan chog'lari yoshlarimizga saboq bo'lsin deya bu haqda bir nechta kichik hikoyalarni ham yozgan. Biroq ularni chop ettira olmag'an.

O'ylaymanki, bu hikoyalar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan yo'q.

Odiljon IMINOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
Mavluda SOHIBOVA, Andijon davlat tibbiyot institutining Pediatriya kafedrasii assistenti.

UCH HIKOYA

1943-yil 19-iyulda Oryol-Kursk atrofida jangga kirdik. Bu hududda Belgorod va Minsk shaharlarini ozod qilish uchun qattiq janglar bordi. Bir necha kun davom etgan shiddatli janglar evaziga qo'shilarimiz G'arb tomon yura boshladi. Dushman ancha chiranmasin, chekinishga majbur qilishning iloji bo'lmadi.


Bir oyga yaqin shu qishloq uchun qattiq jang bordi: na dushman bizni chiq qirg'oqqa ulotirib tashlay oldi, na biz o'zinga jila oldik. Dneprning o'ng qirg'og'i baland qoyadan iborat bo'lib, biz o'sha qoyada okoplarda turib, dushmanni yaqinlashtirmas edik. Ba'zi kunlari dushman bir necha marta hujumga o'tardi. Agar dushman ustun kelguday bo'lsa, biz suzib daryoning narigi qirg'og'iga o'tib ketishimiz

Bizning polkimiz Kiyev Janubidagi Kanev shaharchasiga yaqin bo'lgan Grigorovka qishlog'iga o'tishi lozim edi. Komandirimiz kapitan Dolbeshkin bilan birgalikda to'rt kishi 23-sentyabr kuni Dneprning o'ng tomoniga qayiqda o'tdik. Qayiqni boshqarishda bizga bir partizan yordam berdi.

1944-yilning avgust oyida dushmanni G'arb tomon chekintra borib, Polsha yerlarini ozod qilayotgan edik. 6-avgust kuni bizning polkimiz parom va qayiqlarda Visla daryosi qirg'og'iga o'ta boshladi. Komandirimiz kapitan Goncharenko bilan birgalikda 5 kishi qayiqqa o'tirdik. Daryoning ikki tomoniga sin tortilgan edi. Hammamiz o'sha simni ushlab, asta-sekin narigi qirg'og' tomon silijib borayotgan edik. Daryoning o'rtasiga yetqandagina kutilmaganda sim qo'limizdan chiqib ketdi. Biz o'tirgan qayiq daryo bo'ylab oqib keta boshladi. Nariroqda — G'arbiy

1945-yilning yanvar oyi. Dushmanni Polshadan tamomila Germaniya hududiga ulotirib tashlagan edik. Belgilangan joyga yetib borish uchun dushmanga tinim bermay hujum uyushtirish, har qanday to'siq bo'lsa ham, to'xtamasdan jang qilish zarur edi.

Shu tariqa jang davom etib, G'arb tomon tobora shiddat bilan siljiyotgan bir vaqtda o'rmondan chiqdug-u Oder daryosiga duch keldik. Dushman yo ko'priklarni egallab olgan yo'ki portlatib tashlagan — bu bilan bizni daryoning Sharqiy qirg'og'ida to'xtatmoqchi bo'lgan. Biroq qo'shinlarimiz Don, Dnepr, Visla silgari katta va kichik daryolarning ko'pinisi kesib o'tib, bu borada ancha tajribaga ega bo'lib qolgan



talab etilardi. Buning uchun suzishni ancha yaxshi bilish kerak, chunki daryoning eni bir necha yuz metr bor edi. O'sha vaqtda men suzishni bilmaganim uchun bitta o'qni "zapas" holda ushlab turishga majbur edim. Agar dushman ustun kelsa, asirlikka tushib qolmaslik uchun o'zimni o'zim o'tib tashlashim zarur edi. Ammo mening baxtimga biz ustun kelib, dushmanni G'arbiga tomon surib tashladik. Suzishni o'rganmaganimga men o'shanda birinchi marta qattiq afsuslangan edim...

qirg'oqda dushmanlar bo'lib, o'rtada otishmalar davom etayotgandi. Biz darhol "lopotka"larni ishga solib, qirg'oq tomon suza boshladik. Xayriyatki, eson-omon majo'lga yetib oldik. Agar qayiqni qirg'oqqa burish imkoni bo'lmaganda, sheriklarim o'zlarini suvga tashlab suzib ketish uchun tayyor holdatda edi. Men esa nima qilishim mumkin — qayiqda ketsam dushman qo'lga tushib qolaman, suvga tashlasam cho'kib ketaman. Shu tarzda Visladan o'tishda ham suzishni bilmaganimga yana bir bor afsuslangan edim...

paytda qishki ust-boshlar bilan nafaqat men, suvda suzishni bilgan odam ham o'zini eplab olishi qiyin. Shu tariqa muzlar ustidan sakrab yurib, Oderni ham ortda qoldirdik. Biroq men boshqalarga nisbatan ko'proq izitiro chekkan edim. Chunki suzishni bilmasam-da, shuncha jang-jadal kechib kelib oxirida — Oderda cho'kib ketmasaydim, deb o'ylagandim...

Mana, sizga suzishni bilmaganligim haqidagi jangovar va qo'qiy hikoyalari. Bular shunchaki hikoya emas, balki hech qachon unutilmaydigan shonli sahifalardir.

Mening navqiron do'stlarim, yana takror aytaman — suzishni o'rganing!

O'zbekiston bo'ylab "PISA — 2025" xalqaro tadqiqot jarayonlari qizg'in davom etmoqda.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oq bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksal olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; ko'itibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonadan manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.40 Topshirildi — 02.05 **1 2 3 4 5 6**

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Navbatchi muharrir R. Kobonasi, 55-uy.
Nashriyot muharrir R. Kobonasi, 55-uy.
Musahhih Sh. Mashrabboev.